

PANDEMIC. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(2), 78–84. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/6446>

5. Tojiyeva, M. M. (2024). O 'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHDA OLIMPIADA MASALALARINI O 'QITISHNING AHAMIYATI. Kokand University Research Base, 444-448.

6. Tajiyeva, M. M. (2022). SOCIO-ECONOMIC SYSTEM OF SMALL BUSINESS THEORETICAL VIEWS OF SCIENTISTS IN DEVELOPMENT. A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 55-59.

7. Yuldasheva Nilufarxon a'zamjon qizi, (2024) [XULQ-ATVOR MOLiyASINING ASOSLARI VA UNING INVESTORLARNING QAROR QABUL QILISHDAGI O'RNI](https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/510) University Research Base, 2024 Retrieved from: <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/510>

8. THE ESSENCE OF CUSTOMER RELATIONSHIP MANAGEMENT SYSTEMS, DEVELOPMENT THEORIES. (2025). International Conference on Economics, Finance, Banking and Management, 102-111. <https://econfseries.com/index.php/6/article/view/491>

9. FACTORS INFLUENCING CUSTOMER RELATIONSHIP MANAGEMENT STRATEGIES IN SMALL BUSINESS OPERATIONS AND THEIR SPECIFIC CHARACTERISTICS. (2025). International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences, 44-51.

10. Mexmonaliyev, U. (2024). ICHKI AUDITNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI. University Research Base, 277–279. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/515>

MINTAQADA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA YASHIL MEHMONXONALAR AHAMIYATI

Jumaniyozov Feruzbek Dilshod o'g'li

“Ma'mun universiteti” NTM

Buxgalteriya hisobi va Biznes

boshqaruvi kafedrası o'qituvchisi

jumaniyozov_feruzbek@mamunedu.uz

Annotatsiya: Bugungi kunda globallashuv jarayonlari jahon iqtisodiyotining barcha jabhalariga, jumladan, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirgan mehmonxona xizmatlar-ining jahon bozoriga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi va bu ko'p jihatdan turli xil innovatsiyalarning, xususan, iqtisodiyotni ekologiyalashtirishning paydo bo'lishi va joriy etilishiga sabab bo'ldi. Mazkur maqolada “Yashil mehmonxona” tushunchasiga ilmiy yondashuv asosida uning mazmun mohiyatini yoritishni, shuningdek uning iqtisodiy ahamiyatini, an'anaviy mehmonxonalar bilan taqqoslama tahlil asosida asoslashni maqsad qilgan. Maqola davomida Xorazm viloyatida yashil mehmonxonalarni joriy qilish bilan bog'liq muammolar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Eko-turizm, yashil mehmonxona, barqaror turizm, globallashuv, iqtisodiy islohotlar, ekologik toza mahsulot, ekologik sertifikat.

Abstract: Today, globalization processes have affected all aspects of the world economy, including the global market of hotel services, which has undergone significant changes since the second half of the 20th century, and this has largely led to the emergence and introduction of various innovations, in particular, the greening of the economy. This article aims to shed light on the essence of the concept of "Green Hotel" based on a scientific approach, as well as to substantiate its economic significance based on a comparative analysis with traditional hotels. The article develops problems and practical proposals related to the introduction of green hotels in the Khorezm region.

Key words: Eco-tourism, green hotel, sustainable tourism, globalization, economic reforms, environmentally friendly product, ecological certificate.

Аннотация: Сегодня процессы глобализации затронули все стороны мировой экономики, в том числе и мировой рынок гостиничных услуг, который претерпел существенные изменения со второй половины XX века, и это во многом привело к

появлению и внедрению различных инноваций, в частности, экологизации экономики. Цель данной статьи – раскрыть сущность понятия «Зеленый отель» на основе научного подхода, а также обосновать его экономическую значимость на основе сравнительного анализа с традиционными отелями. В статье рассматриваются проблемы и практические предложения, связанные с внедрением зеленых гостиниц в Хорезмской области.

Ключевые слова: Экотуризм, зеленый отель, устойчивый туризм, глобализация, экономические реформы, экологически чистый продукт, экологический сертификат.

Kirish: Barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan turizm tabiiy va madaniy merosni asrashni birlamchi maqsad sifatida belgilaydi. Bu, o'z navbatida, ekologik barqarorlikni ta'minlashni talab qiladi. Misol uchun, chiqindilarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, tabiiy manzara va yodgorliklarni saqlash kabi chora-tadbirlar hududning uzoq muddatli rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shuningdek, turizm infratuzilmasini "yashil texnologiyalar" yordamida rivojlantirish, masalan, ekologik toza transport turlarini qo'llash va energiya tejankor mehmonxonalar qurish, ekologik zararlarni minimallashtiradi. Bu esa turistlar uchun qulay muhit yaratib, mintaqaga turistlar oqimini barqaror ushlab turishga yordam beradi. [1]

Asosiy qism: O'zbekiston ayni paytda yanada yashil va barqaror kelajak sari muhim qadamlar tashlamoqda. Dunyo bo'ylab atrof-muhitni muhofaza qilish va qayta tiklanadigan energiyaga ko'proq e'tibor qaratilayotgani sababli, har bir kishi o'z uglerod izini kamaytirish muhimligini tushundi. Mehmonxonalarni yashil standartlarga javob berishga chaqirish orqali Mehmonxonalar assotsiatsiyasi turizm sektori bilan bog'liq ekologik muammolarni hal qilishga va mehmonlarning umumiy tajribasini yaxshilashga qaratilgan. Ushbu tashabbus o'sib borayotgan global ekologik tashviqot va barqaror sayohat variantlariga talab ortib borayotganini e'tirof etadi.

Dunyoda ekoturizmga bo'lgan talabning yaqqol ortib borayotganiga qaramay, hozircha "yashil-mehmonxona" atamasi haqida yagona va to'liq tushuncha mavjud emas. Yashil-mehmonxona – bu turar joy obyekti bo'lib, uning asosiy xususiyati atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirishga qaratilgan maxsus choralarni joriy qilishdan iborat: ular suvni tejash, chiqindilarni saralash, ekologik toza tozalash vositalaridan foydalanish, kiyimlarni yuvish va nonushta uchun organik mahsulotlarni taklif qilish. "Yashil mehmonxona" bu yashil yashash tamoyillariga mos keladigan ekologik barqaror obyektidir [2]

Yashil mehmonxonalar uchun eng xarakterli bo'lgan asosiy jihatlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

- *chiqindilarni samarali boshqarish (minimallashtirish va utilizatsiya qilish);*
- *turli xil resurslardan (elektr energiyasi, suv, sotib olingan tovarlar) foydalanishni*

qisqartirish.

Yashil mehmonxonalar energiyani tejaydigan tizimlardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik toza mahsulotlarni qo'llash orqali mijozlarga xizmat ko'rsatadi.

O'zbekistonning tabiiy boyliklari va madaniy merosi, ekologik turizmni rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi. Ekologik toza mehmonxona va turizm infratuzilmasini yaratish, ekologik turizmga bo'lgan talabni oshirish, O'zbekistonning turizm sohasini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Yashil turizm, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. [3]

Yashil mehmonxonaning standart amaliyotiga quyidagilar kiradi:

➤ barqaror yoki qayta ishlangan materiallardan foydalangan holda yangi mulkni loyihalash;

- aqlli termostatlar va aqlli yoritishni o'rnatish;
- toksik bo'lmagan maishiy mahsulotlardan foydalanish;
- qog'ozsiz ishlash (masalan, elektron hisob-kitob);
- organik choyshablar, sochiqlar va matraslarni sotib olish;
- shamol va quyosh panellari kabi qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya

kiritish;

- mehmonxona chiqindilarini kamaytirish;
- kamroq iste'mol qilishni rag'batlantirish (ya'ni, sochiqni qayta ishlatish yoki suv idishlarini to'ldirish).[4]

Dunyo bo'ylab ko'plab sayohatchilar eko-sayohatga ko'proq ustunlik berishmoqda. Barqaror turizm statistik ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda:

✓ sayohatchilarning 81% ular uchun barqaror sayohat muhimligini tasdiqlashmoqda, 50% esa iqlim o'zgarishi haqidagi so'nggi yangiliklar ularga yanada barqaror sayohatni tanlashlariga ta'sir qilganini aytdi;

✓ sayohatchilarning 59 foizi tashrif buyurgan joylarini kelgan vaqtlaridan ko'ra yaxshiroq tark etishni xohlashlarini aytishdi, 33 foizi esa haddan tashqari gavjum bo'lmaslik uchun eng yuqori mavsumdan tashqarida sayohat qilishni tanlashmoqda;

✓ qariyb chorak (23%) uglerod izlarini kamaytirish uchun so'nggi 12 oy ichida uyga yaqinroq manzilga sayohat qilishni afzal ko'rishgan; hozirda butun dunyo bo'ylab 100 000 dan ortiq obyektlar

✓ Booking.com saytida Sayohat Sus-tainable nishoni bilan barqarorlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlari uchun e'tirof etilmoqda.[5]

Yashil mehmonxonalarni an'anaviy mehmonxonalardan farqlaydigan bir qancha omillari mavjud, bular quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Yashil mehmonxona va an'anaviy mehmonxona

<i>Xususiyat</i>	<i>An'anaviy Mehmonxona</i>	<i>Yashil Mehmonxona</i>
Energiya manbai	Asosiy energiya manbai – elektr va gaz	Quyosh panellari, shamol generatorlari, LED yoritish
Suvni tejash	Oddiy suv ta'minoti, katta sarf	Suvni qayta ishlash tizimi, yomg'ir suvidan foydalanish
Chiqindilar	Plastik va organik chiqindilar ko'p	Chiqindilarni qayta ishlash va kompost qilish
Materiallar	Sun'iy materiallar va plastik mebellar	Tabiiy yog'och, qayta ishlangan materiallardan foydalanish
Transport	An'anaviy transport, yoqilg'i iste'moli yuqori	Elektromobillar uchun quvvatlash stansiyalari, velosiped ijarasi
Mahalliy mahsulotlar	Import qilingan mahsulotlarga tayanish	Mahalliy va ekologik toza mahsulotlardan foydalanish

Yashil mehmonxonalarning iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilib quyidagi ijobiy xulosalar olindi. Xorazm viloyatida yashil mehmonxona tizimlarini joriy qilish orqali xarajatlarni maksimal darajada kamaytirish mumkin ya'ni energiya va suv tejash hisobiga ekspluatatsion xarajatlar pasayadi, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash orqali resurslardan samarali foydalanish. Qolaversa mintaqaga mehmonlar oqimini oshirish imkoniyati kengayadi sababi ekoturizm bilan qiziqadigan sayyohlar soni yildan-yilga ortib bormoqda va xalqaro ekologik sertifikatga ega mehmonxonalarda raqobatda ustunlikka ega bo'ladi. Bundan tashqari mahalliy iqtisodiyotni ham bevosita qo'llab quvvatlaydi.

Yuqoridagi ijobiy natijalarga erishishda O'zbekistonda yashil mehmonxonalarni rivojlantirish uchun quyidagi choralar ko'rilishi mumkin:

- davlatning qo'llab-quvvatlash mexanizmlari: yashil loyihalar uchun subsidiyalar va soliq imtiyozlari;

- xalqaro hamkorlik: yashil texnologiyalar bo'yicha xorijiy tajribalardan foydalanish.

- xodimlarni o'qitish: mehmonxona xodimlarini ekologik tamoyillar bo'yicha malakasini oshirish.

Xulosa va takliflar

Xorazm viloyatida yashil mehmonxonalarni joriy etish bo'yicha takliflar

Quyosh energiyasidan foydalanish - Xorazm viloyati quyoshli kunlar soni ko'pligi bilan ajralib turadi, shuning uchun mehmonxonalarga quyosh panellari o'rnatish energiya tejamkorligiga katta hissa qo'shishi mumkin.

Suv tejash tizimlarini joriy qilish - Viloyat qurg'oqchil hudud hisoblangani uchun suvni qayta ishlash tizimlari, yomg'ir suvidan foydalanish va tomchilatib sug'orish texnologiyalarini mehmonxonalarda joriy etish muhim.

Ekologik sertifikatlash tizimini rivojlantirish - Yashil mehmonxonalar xalqaro ekologik sertifikatlariga ega bo'lishi kerak (masalan, LEED yoki Green Key sertifikati). Bu xorijiy ekoturistlarni jalb qilishda muhim omil bo'lishi mumkin.

Mahalliy ekologik materiallardan foydalanish - Xiva va Urganchdagi mehmonxonalar g'isht, yog'och va gil kabi tabiiy materiallardan keng foydalanib, ekologik mebel va dekor yaratishi mumkin.

Chiqindilarni qayta ishlash va nol chiqindi tizimi - Xorazmdagi yashil mehmonxonalar chiqindilarni qayta ishlash va kompostlash tizimini joriy qilib, ekologik toza xizmat ko'rsatishi lozim.

Elektromobillar va ekologik transportni rivojlantirish - Mehmonxonalarda elektromobillarni quvvatlash stansiyalari va velosiped, elektro samakad va skuterlar ijarasi xizmatlari bo'lishi turizmning ekologik barqarorligini oshiradi.

Mahalliy tadbirkorlar va qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash - Mahalliy dehqonlar bilan hamkorlik qilib, mehmonxonalarda organik mahsulotlardan tayyorlangan taomlarni taklif qilish mumkin. Bu mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi.

Xorazm ekoturizmini rivojlantirish - Yashil mehmonxonalar Xorazmning boy tarixiy merosi bilan uyg'unlashgan ekologik ekskursiyalar, agro-turizm va madaniy turizm dasturlarini yaratishi lozim.

Xorazm viloyatida yashil mehmonxonalarni joriy qilish **barqaror turizmni rivojlantirish, ekologik muhitni saqlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish** imkonini beradi. Quyosh energiyasidan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va mahalliy ekologik materiallarni ishga solish kabi chora-tadbirlar Xorazmda yashil mehmonxonalar konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmon o'g'li, M. S. (2024). IJTIMOIIY TARMOQLAR ORQALI TURISTIK JOYLARNI REKLAMA QILISH VA MIJOZLAR BILAN SAMARALI ALOQA O'RNATISH. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(10), 369-374.
2. Мілінчук, О. В. (2014). Переваги екологічної сертифікації готелів в Україні.
3. Eshov M. (2022). "Investitsion mahorat". Darslik. – Toshkent.: "Yangi asr avlodi", B.75-82.
4. Hakimova, N. (2023). Mehmonxona xo'jaligida yashil texnologiyalarni joriy qilish. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(maxsus son).
5. <https://www.statista.com/topics/1916/green-tourism/>